



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 03 | pp. 163-168 | ISSN: 2181-1865  
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### ASOSIY VOSITALAR XAMDA NOMODDIY AKTIVLAR XISOBI VA UNI OCHIB BERISH BHXS MISOLIDA



**Mardanov Zafar Xurramovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
PhD mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada tijorat banklarida buxgalteriya xisobi va hisobotida, Asosiy vositalar hisobi va nomoddiy aktivlar xisobi, uni ochib berishning BHXS misolida, bunda asosan hisobotni ishlab chiqishga asos bo'luvchi asosiy xujjatlar haqida ham ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Amortizatsiya, Aktiv, boshlang'ich qiymati, Asosiy vositalar, Nomodiy aktiv.

#### **СЧЕТ ОСНОВНЫХ И НЕМАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ И ЕГО РАСКРЫТИЕ КАК ПРИМЕР Междуннародных стандартов финансовой отчетности (IAS)**

**Марданов Зафар Хуррамович**  
Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация:** В статье приведены сведения по бухгалтерскому учету и отчетности коммерческих банков, учету основных средств и нематериальных активов, пример МСБО его раскрытия, а также основные документы, являющиеся основанием для разработки отчета.

**Ключевые слова:** Амортизация, Актив, первоначальная стоимость, Основные средства, Нематериальный актив.

#### **FIXED ASSETS AND INTANGIBLE ASSETS ACCOUNT AND ITS DISCLOSURE AS AN EXAMPLE OF International Accounting Standard (IAS)**

**Mardanov Zafar Xurramovich**

*Tashkent State University of Economics*

**Abstract:** The article provides information on the accounting and reporting of commercial banks, accounting for fixed assets and intangible assets, an example of the IFRS for its disclosure, as well as the main documents that form the basis for the development of the report.

**Key words:** Depreciation, Asset, initial cost, Fixed assets, Intangible asset.

#### 1. Kirish.

Amortizatsiya bu aktivning amortizatsiya qilinadigan qiymatini uning ishslash muddati davomida muntazam ravishda taqsimlash. Amortizatsiya qilingan xarajat bu

aktivning boshlang'ich qiymati yoki tugatish qiymatidan kam bo'lgan asl qiymati o'rniga qayd etilgan boshqa miqdor. Aktivning tugatish qiymati bu tashkilot hozirda aktivni sotishdan oladigan taxmin qilingan summa, agar aktiv allaqachon kutish mumkin bo'lgan yoshga va holatga yetgan bo'lsa, uni tasarruf etishning taxminiy xarajatlaridan kamroq uning ishslash muddati tugashi. Xizmat muddati bu tashkilot aktivdan foydalanishni kutayotgan vaqt davri yoki kompaniya aktivdan foydalanishdan olishni kutayotgan ishlab chiqarish birlklari yoki shunga o'xshash birliklar soni.

## **2. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

Amortizatsiya usullari to'g'ri chiziqli hisoblash tugatish xizmatini o'zgartirmasdan aktivning foydali muddati davomida doimiy amortizatsiya miqdorini hisoblash kamaytirilgan balansdan foydalanish muddati davomida amortizatsiya miqdorini kamaytirish aktivdan maqsadli foydalanish yoki mo'ljallangan faoliyat asosida amortizatsiya miqdorini hisoblash[1].

Aktivning eskirishi aktiv foydalanish uchun mavjud bo'lganda boshlanadi, ya'ni aktivning joylashgan joyi va holati uni kompaniyaning niyatiga muvofiq foydalanishni ta'minlaydi. Aktivning amortizatsiyasi uning tan olinishi tugashi bilan to'xtaydi. Agar asosiy vositalar obyekti ishlamay qolsa yoki keyinchalik sotilishi sababli, ishdan chiqsa, amortizatsiya to'xtamaydi. Aktivning amortizatsiyasini ishlab chiqarish usulidan foydalanganda amortizatsiya to'lovlari nolga teng, aktiv esa hech narsa ishlab chiqarmaydi. Har bir davr uchun amortizatsiya to'lovlari, agar ular boshqa aktivning balans qiymatiga kiritilmagan bo'lsa, davrning foydasi yoki zararida tan olinadi.

Boshlang'ich qiymati obyektning umumiy qiymatiga nisbatan muhim bo'lgan asosiy vositalar bo'lgan obyektining har bir komponenti alohida amortizatsiya qilinadi. Asosiy vositalar obyekti qiymatining pasayishini aniqlash uchun BHXS (IAS) 36 Aktivlarning qadrsizlanishi[4] qo'llaniladi, bu qadrsizlanishi, yo'qotishlarini hisobga olishni tartibga soladi. Asosiy vositalar qadrsizlanishi biror bir qiymatdagi asosiy vositani qadrsizlanishi nazarda tutilgan tushuncha.

## **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Asosiy vositalarni hisobi tijorat banklari misolida quyidagi standartlar asosida tartibga solinadi[3].

BHXS (IAS) 16 Asosiy vositalar;

BHXS (IAS) 36 Aktivlarning qadrsizlanishi;

Asosiy vositalar quyidagi hisobvarag'larda yuritiladi

-16501 hisobvarag'idan -16593 hisobvarag'igacha olib boriladi.

Asosiy vosita bo'lishi uchun aktiv guruhning xizmat ko'rsatish, ijara va boshqaruv maqsadlarida foydalanishi va xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lishi zarur.

Aktivlarning hisobida quyidagi asosiy jixatlar mavjud;

aktivning tan olinishi uning balans qiymatini aniqlanishi tan olish vaqtini va keyingi xarajatlari amortizatsiya miqdorini aniqlash va uning kadrsizlanishi zarari.

Asosiy vositalar quyidagi holatlarda aktiv sifatida aks etadi.

A) yuqori extimol bilan kelajakda guruxga iqtisodiy naf olib kelsa;

B) moddaning tannarxini ishonchli tarzda o'lchash imkoniyati bo'lsa Aktiv uchun keyingi davrlarda qilingan bilvosita xarajatlar;

- kunlik/oylik/choraklik yoki davriy xarajatlar - bu xarajatlar "ta'mirlash xarajatlari" sifatida aks etadi.

-ba'zi qismlarini almashadirsa, ushbu asosiy qismlarni Asosiy vosita tannarxiga qo'shiladi.

Asosiy vositalar balansda tan olingandan so'ng quyidagicha keyingi davrlarda balansda aks ettirilib borilishi mumkin[5].

1) "Cost model"da boshlang'ich qiymat minus jamlangan eskirish minus kadrsizlanish;

2) qayta baholash modeli qayta baholash aktivning xaqiqiy bahosini aniqlash orqali amalga oshiriladi qayta baholash tashqi baholovchi kompaniya tomonidan amalga oshirilib u quyidagi talablarga mos kelishi shart.

Shu o'rinda "Cost model" jumlasiga sharx berib o'tamiz ya'ni "Cost model" o'zi nima? degan savol bo'lishi tabiiy buni ma'nosi nima, bu "Xarajat modeli" degan ma'noni anglatadi. Nega xarajat modellari muxim? Xarajat modellari tijorat korxonalar uchun moliyaviy karorlar qabul qilish va strategik rejalashtirishda muxim rol o'yndaydi. Xarajatlaringizni tushunib, Siz mahsulotlarning narxini belgilashingiz, samarasiz xududlarni aniqlashingiz, budgetlar yaratishingiz va kelajakdagi xarajatlarni prognoz qilishingiz mumkin. Bu xarajatlarni nazorat qilish va resurslarni investitsiyalash bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish orqali rentabellikni ta'minlashga yordam beradi.

- a. halqaro qayta baholash bo'yicha sertifikatga egaligi;
- b. mustakil baholovchining Guruxdan mustaqilligi obyektiv bo'lishi;
- (masalan imtiyozli krediti mavjud emasligi yaqin qarindoshi emasligi)
- s. tajribasi mavjudligi xisobga olinadi.

#### 4. Tahlil va natijalar.

Qayta baholashda asosiy vositaning qiymati ortganda amortizatsiya qismi to'g'rilanadi. Asosiy vositalarga eskirish O'zbekiston Respublikasi Solik kodeksiga asosan belgilangan muddatlarda oshiriladi. Eskirish oylarga bo'lingan holda to'g'ri chiziqli usulda amalga oshiriladi.

Misol tariqasida qo'yidagicha:

Amaliyot Sana Ming so'mda

Kompyuter sotib olindi, muddati 5yil =100/20%dan 1 yanvar 2018 yil 100

Eskirish = 100 000/5 yil 2018 yil uchun (20)

Qayta baholandи =80 000+10 000=90 000 1 yanvar 2019 90

Eskirish =90 000/4yil 2019 yil uchun (22.5)

Qoldiq 31 dekabr 2019 yil 67.5

Quyidagi to'g'ridan to'g'ri xarajatlar asosiy vosita tannarxi sifatida aks ettiriladi[5];

1) xodimning asosiy vosita yaratilishi yoki qurilishida bevosita ishtirokidagi xarajatlar (yordami berishdagi xarajatlar emas)

- 2) asosiy vosita tuzilishlarini tayyorlash xarajatları;
- 3) asosiy yetkazib berish va tashish, o'rnatish, yig'ish, xarajatları;
- 4) aktivni tayyorlashdagi tekshirish xarajatları;
- 5) professional xizmatlar xarajatları.

Moliyaviy xisobotda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar quyidagicha aks ettiriladi:

- bino va inshoatlar (16509 va 16515 hisobvaraqlari);
- qurilish jarayonidagi asosiy vositalar ( 16505 hisobvaraqlari);
- ofis va kompyuter jihozlari (boshqa hisobvaraqlar).

Yuqoridagi asosiy vositalar xarakati quyidagicha aks etadi:

- kirimi;
- chiqimi;
- ichki transferlar: filiallar/Bosh bank o'rtasidagi, sho'ba korxonalar/bank o'rtasidagi, qurilishdan bino va inshoatlarga yoki to'grilash transferlari.

Asosiy vositalar bo'yicha MHXS yuzasidan amaliyotlar:

1) ombordagi asosiy vositalarni "Mazmunning shakldan ustunligi" tamoyili asosida qayta tasniflash zarur, bunda mijozlarga kredit/lizing asosida berilayotgan terminallarni 19921 hisobvarag'iga olib o'tiladi;

2) qayta baholangan asosiy vositalar summasi qaytariladi, chunki, bunda Mustaqil baholovchi baholash prinsiplari xisobga olinadi va quyidagicha amaliyot bajariladi: Debit 30908 va 31203 hisobvarg'lari, Kredit 16500 va 56600 hisobvarag'lari;

3) bank tomonidan sho'ba korxonaga sotilgan asosiy vositalar, ichki transfer sifatida ko'rildi va olingan daromad qaytariladi, hamda quyidagicha amaliyot bajariladi: Debit 3120Z (45909) hisobvarag'i, Kredit 16500 hisobvarag'i.

Aktivning balans qiymati aktivdan foydalanish yoki uning sotish qiymatidan ortsa (NRV), aktiv qadrsizlangan hisoblanadi. Qadrsizlanishi quyidagilarda aks etadi:

- iqtisodiy naf kutilganidan ko'ra kamroq bo'lganda;
- aktiv ma'nан eskirganligi yoki jismonan shikastlanganligi.

### **Tijorat banklari misolida nomoddiy aktivlar haqida ko'rib chiqishimiz mumkin.**

Nomoddiy aktivlar bu - BHXS 38 [4] standartiga asosan amalga oshirilib boriladi. Dasturlar - dasturlar qachon nomoddiy aktiv sifatida qo'llaniladi, qachonki kompyuterdan ajratilgan holda bo'lsa, shundagina uni nomoddiy aktiv sifatida atashimiz mumkin. Nomoddiy aktiv -bu nomonetar, identifikatsiya kilinadigan aktivlar bo'lib, moddiy va jism shakliga ega bo'limgan, foydali xizmat muddati bir yildan ortik bo'lgan hamda ulardan bank xizmatlari ko'rsatishda yoki ma'muriy maqsadlar uchun foydalanishga mo'ljallangan aktivlardir. Nomoddiy aktiv xujjat ko'rinishida bo'lishi mumkin, masalan, patentlar, litsenziyalar, nou-xaular, kompyuter dasturiy ta'minoti, mualliflik xuquqi, gudvil kabilar kiradi. Nomoddiy aktiv dastlab tannarxda baholanishi lozim. Nomoddiy aktivlar 16600 hisobvarag'larida yuritiladi.

Nomoddiy aktivlar quyidagi holatlarda tan olinadi:

- kelgusida iqtisodiy naf olishi mumkin bo'lsa;
- aktivning tannarxi ishonchli baxolana olsa;

Quyidagilar nomoddiy aktiv tannarxiga kiritilmaydi, lekin xarajatda aks etadi:

a) nomoddiy aktiv raxbariyat ko'zlagandek ishlay oladigan holatga keltirilgan, lekin foydalilmagan paytda sarflangan xarajatlar;

) reklama, sotish bo'yicha chora xarajatlar;

s) yangi joyda biznesni amalga oshirish xarajatlari (jumladan, xodimlar uchun treyning xarajatlar).

Nomoddiy aktivlarning foydalanish xizmatlari muddati va amortizatsiya nomoddiy aktivning foydalanish xizmati muddati O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 307-<sup>o</sup>moddasida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

### 5. Xulosa va takliflar.

Aktiv uchun foydalanish xizmati muddati bank yoki (Chief financial officer yoki xorijda ko'rsatilganidek SFO) Bosh buxgalter bilan o'zaro kelishilgan holda BHXS 38 standarti talablari asosida belgilashi mumkin. Aktiv amortizatsiyasi foydalanish muddatidan kelib chiqib, har oylik to'g'ri chiziqlik usul asosida amalga oshiriladi. Nomoddiy aktivni qayta baholash. Aktiv tan olingandan so'ng qayta baholash mumkin bo'ladi. Agarda aktivning xaqiqiy qiymati balans qoldiq qiymatidan sezilarli farq kilsa, aktivning, qayta baholash zarur bo'ladi. Agar aktiv uchun faol bozor mavjud bo'lmasligi tufayli aktivni qayta baholash imkoniyati bo'lmasa, aktiv uning tannarxidan har kanday jamg'arilgan amortizatsiya va kadrsizlanish bo'yicha zararlarning chegirilgan qiymatida xisobga olinishi lozim. Aktivni bozor baxosi mavjud bo'lmasa, uning qadrsizlanishini BHXS Z6 standarti asosida tekshirilishi zarur.

Tashkilotning o'zida yaratilgan gudvil.

Tashkilot o'zida yaratilgan gudvil aktiv sifatida tan olinmaydi.

Ba'zi hollarda kelgusi iqtisodiy nafni yaratish maqsadida sarflar amalga oshiriladi, lekin mazkur standartda belgilangan mezonlarga javob beradigan nomoddiy aktivni yaratilishiga olib kelmaydi. Bunday sarflar odatda tashkilot o'zida yaratilgan gudvilni shakllanishiga yordam sifatida qaraladi. Tashkilot o'zida yaratilgan gudvil aktiv sifatida tan olinmaydi, chunki u tashkilot tomonidan nazorat qilinadigan va boshlang'ich qiymati ishonchli baholanishi mumkin bo'lgan identifikatsiyalanadigan resurs hisoblanmaydi (ya'ni ajraladigan hisoblanmaydi va shartnomaviy yoki boshqa yuridik huquqlardan kelib chiqmaydi).

Tashkilotning haqqoniq qiymati bilan uning identifikatsiyalanadigan sof aktivlari balans qiymati o'rtasidagi farqlarni istalgan vaqtida tashkilotning haqqoniq qiymatiga ta'sir ko'rsatadigan omillar qatoriga kiritish mumkin. Biroq, bunday farqlar tashkilot tomonidan nazorat qilinadigan nomoddiy aktivning boshlang'ich qiymatini o'zida aks ettirmaydi.

Tashkilot o'zida yaratilgan nomoddiy aktivlar.

O'zida yaratilgan nomoddiy aktivni quyidagi muammolar sababli tan olish mezonlariga javob berishini baholash ba'zan qiyin bo'ladi:

(a) kutilayogan kelgusi iqtisodiy naflarni olib keladigan identifikatsiyalangan aktivning mavjudligini va mavjud bo'lish paytini aniqlash bilan bog'liq muammolar;

(b) aktivning boshlang'ich qiymatini ishonchli baholash bilan bog'liq muammolar. Ba'zi hollarda, nomoddiy aktivlarni tashkilot o'zida yaratish bilan bog'liq sarflarni tashkilot o'zida yaratilgan gudvilni saqlab turish yoki mustahkamlash yoxud kundalik faoliyatni amalga oshirish uchun qilingan sarflardan farqlash imkonsizdir.

Tashkilot o'zida yaratilgan nomoddiy aktivlarni tan olish mezonlariga javob berishini baholash maqsadida aktiv yaratilishini quyidagi ikkita bosqichga ajratadi:

(a) tadqiqot bosqichi;

(b) tajriba konstrukturlik ishlari bosqichi.

"Tadqiqot" va "Tajriba konstruktorlik ishlari" atamalari ta'riflangan bo'lishiga qaramay, mazkur standart maqsadlarida "Tadqiqot bosqichi" va "Tajriba konstruktorlik ishlari bosqichi" atamalari kengroq ma'noga ega.

Agar tashkilot nomoddiy aktivni yaratish bo'yicha ichki loyihaning tadqiqot bosqichini tajriba konstruktorlik ishlari bosqichidan farqlay olmasa, u holda mazkur loyiha bo'yicha sarflarni faqat tadqiqot bosqichida amalga oshirilgan sarflar tarzida hisobga oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni.
2. "Moliyaviy hisobotning halqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi 24.02.2020 yildagi PQ-4611.
3. Adliya vazirligida 2021 yil 27 noyabrda 3337-sون bilan ro'yxatga olingan Tijorat banklarining xisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizom" va tijorat banklarini xisob siyosati va MHXS bo'yicha ichki nizomlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib (keyingi o'rnlarda -Bank) da xisob yuritish qoidalarini belgilaydi.
4. «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomi»gi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 9 dekabrdan ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami №-3400
5. Jurnal MSFO. MSFO (IAS) 16 "Osnovnie sredstva" Izdatelskiy dom «Metodologiya». Arxivirovano 13 avgusta 2015g.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

